



imkoniyatlarini izlash o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir. Iqtidorli o'quvchilar muayyan o'quv predmetlari yoki ularning qismlarini o'z xohishlariga ko'ra chuqurroq o'zlashtirishga erishadilar. Ular turli bilimlar va axborotlarni tez, chuqur o'rganishni xohlaydilar va o'zlarining o'quv harakatlarini rejalashtiradilar. Shularni hisobga olgan holda iqtidorli o'quvchilarga mustaqil izlanish, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob topishga ko'maklashadigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat", Toshkent – 2009
2. Rahmatova F.G'. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning nazariy-texnologik jihatlar. Uslubiy qo'llanma. Samarqand-2019. – S. 46–48, 66–68.
3. Войтенко Т. Обучение через саморазвитие и самовоспитание // Ж. Директор школы. – М., 2000. – №3. – С. 76–86.
4. Karimova M., Tuychieva R. The pedagogical basics of training students for professional, Moral and educational function // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – № 10. – PP. 311–317.
- 5.

INFORMATIKA FANINING KASBIY FAOLIYATDAGI O'RNI

Murodova Shaxodat Shamurzayevna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada informatika fanining inson hayoti va kasbiy faoliyatidagi o'rni, uning umumta'lim maktablarida o'qitilish zarurlari haqida qisqacha fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *informatika fani, kasb-hunar, bilim, ko'nikma.*

Umumta'lim maktabi o'quvchilarini kasbga yo'naltirish bugungi kunning muhim masalalaridan biri sanaldi. Chunki mamlakat taraqqiyoti va millat kelajagini yoshlar belgilaydi. Umumta'lim maktabi o'quvchilariga 8-9-sinflardanoq o'z oldilariga maqsad qo'yib, ma'lum bir kasb yoxud hunarni egallashga intilishlari zarurligini anglatish hamda



bu masalada to'g'ri tavsiyalar berish kerak. Zero, *“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” da ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish asosiy maqsad qilib olingan.*”⁸

Shu maqsaddan kelib chiqqan holda o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirishda bugungi kunning talablarini inobatga olish hamda kelajak taraqqiyotini ham chamalay bilish shart. Zotan, fan-texnika kundan kunga jadal suratlarda rivojlanib bormoqda.

Fan-texnika tez suratlarda taraqqiy etib borar ekan, umum ta’lim maktabi o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishda ularga to‘liq ma’lumotlar berish, kelajakni oldindan ko‘ra olishni ham uqtirish muhim. O‘quvchilarning kasb tanlashlarida mustaqillikka o‘rgatish, ularga zarur maslahatlar va yo‘nalishlarni berish kerak. O‘quvchilar kasb tanlashda quyidagilarga ahamiyat qaratishsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash va ularni inobatga olish;
- kabsning kelajakdagi iqtisodiy-moliyaviy tomonlarini hisobga olish;
- mamlakatdagi ishlab chiqarish turlarini o‘rganish;
- kasbning kelajakdagi ijtimoiy ahamiyatini bilish;
- kasblar xarakteristikasi-professiogrammadan xabardor bo‘lish;
- kasbni onglilik va mustaqillik asosida tanlash imkoniyatiga ega bo‘lish.

Biror kabsni tanlagan maktab o‘quvchisi shu kasbni egallash uchun ma’lum bir fanlar bilan chuqur shug‘ullanadi. Tanlagan sohasi uchun kerakli fanlarni puxta o‘zlashtirishga harakat qiladi hamda shu fanlarni katta e’tobor bilan o‘qiydi. Biroq maktab o‘quv dasturlarida mavjud bo‘lgan barcha fanlar o‘quvchilarga hayotda, mehnat faoliyatida kerak bo‘ladigan fanlar sanaladi. Xususan, ona tili fani nutqiy ko‘nikmalarni shakllantiradi, lingvistik bilimlarni beradi. Bu fanni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi kelajak hayotida, ish jarayonida hech qanday lingvistik muommalarga duch kelmaydi. Shu kabi inson hayoti va mehnat

⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni // O‘ZA axborot agentligi. 2019-yil 10-oktabr.



faoliyati uchun muhim bo'lgan fanlardan biri informatika fanidir. Informatika fani dunyoning deyarli barcha davlatlari o'rta maktablarida maxsus fan sifatida o'qitiladi va bu fanga bo'lgan ehtiyoj yuqori darajada turadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-dekabrda "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori tasdiqlandi. Va DTSga muvofiq keladigan dastur ishlab chiqildi. DTSda informatika ta'limidan asosiy maqsad "O'sib kelayotgan avlodni zamonaviy axborot texnologiya vositalari bilan ishlash malakalari, mustaqil, mantiqiy va algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan va olgan bilimlarini hayotda tatbiq etishga o'rgatishdan iborat" deb belgilangan.

Informatika fanini o'qitishning asosiy vazifalari "Inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida informatika va axborot texnologiyalarining ahamiyatini anglash;

- o'quvchilarga axborot-kommunikatsion texnologiyalari va ularni qo'llash haqida bilimlar berish;
- kompyuterda masalalar yechish texnologiyalari va asosiy bosqichlarni ketma-ketlikda to'g'ri bajarishga o'rgatish;
- algoritmik tuzilmalar, algoritmlash va dasturlash asoslari haqida bilim berish;
- kompyuterning dasturiy ta'minoti va ularning imkoniyatlarini ajrata bilish hamda amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish;
- o'quvchilarni aqliy rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish;
- fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, kreativlikni shakllantirish; axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini o'rgatib borish;
- ta'lim-tarbiya olishning keyingi bosqichlarida davom ettirishlari, ongli ravishda kasb tanlashga zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat" deb belgilangan.

Shu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda informatika ta'limiga bo'lgan e'tiborni yanada oshirish, fanning o'quvchi-yoshlarga chuqur o'rgatilishi uchun sifatli bilim berish,



har bir darsni samarali o'tkazishga erishish lozim. Buning uchun, avvalo, informatik o'qitish metodikasini takomillashtirish darkor. Informatika fanini qanday va qay uslubda o'tish, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishlari uchun samara beradigan metodlardan foydalanish kabi masalalar informatika metodikasining eng dolzarb masalalaridan hisoblandi.

Informatika o'qitish metodikasi fanidan M. Z. Ziyoxo'jayev, A. A. Abduqodirov, F. M. Zokirov, A. G'. Xayitov, M. E. Mamarajabov, I. Isoqov, D. B. Abdurahimov, S. I. Qulmamatov, D. E. Toshtemirov, S. Q. Tursunov kabi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan.

Informatika fanida dars mashg'ulotlari asosiy vosita sanaladi. Ta'limning ma'lum bir qismi to'garak mashg'ulotlarida yoxud mustaqil ravishda o'zlashtiriladi. Biroq asosiy bilim, ko'nikma hamda malakalar dars davomida egallanadi.

Darsda hosil qilinadigan bilim va ko'nikmalar o'quvchilarga maktabdan keyingi ta'limda: kasb-hunar ta'limi, oliy ta'limda kerak bo'ladi. O'quvchilar qaysi sohani tanlashmasin, qaysi kasb egasi bo'lishmasin informatika fanidan egallagan bilim va ko'nikmalari ular uchun eng zarur *kompetensiya* bo'lib qolaveradi. Chunki hozirgi kunda barcha sohada (ilm-fan, ishlab chiqarish, savdo-sotiq) kompyuter, axborot texnologiyalari vositalarisiz ishlash imkonsiz bo'lib bormoqda. Tez va sifatli faoliyat yuritish uchun ham kompyuter, AKT ning imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali natijalarga erishilmoqda. Ijtimoiy hayotda ham kompyuter, AKT ning o'zni beqiyos. Bu vositalarsiz hayotni tasavvur etish qiyin. Har bir inson hayotini oson va zavqli o'tkazish uchun AKT vositalaridan muntazam foydalanmoqda.

Xullas, informatika fani ta'lim tizimining qaysi bo'g'inida o'rgatilmasin, ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish, kundalik turmush uchun muhim masalalarni oson va jadallik bilan hal etishni o'rgatadi. Informatika imkoniyatlari kengligi, qulaylik yaratishi, tezlikni ta'minlashi bilan boshqa fanlardan ustunlikka ega. Inson qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar kompyuter va AKT vositalarini yaxshi bilsa, o'z xizmat vazifasini to'liq va kutilganidek bajaradi. Bu esa informatika faniga e'tiborni oshirish darkorligini anglatadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Qonun, qaror, farmonlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni//O'z Axborot agentligi. 2019-yil 10-oktabr.
2. Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori, 2017-yil 6-aprel.
3. Umumiy o'rta ta'limning informatika fanidan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. T.: 2017-yil.

Ilmiy maqolalar

4. Mammatjonova A.S. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish chora- tadbirlari. Toshkent: 2022.

Ilmiy risola, darslik va o'quv qo'llanmalar

5. Aripov M. M., Lutfullayev M. X., Informatika va axborot texnologiyalari. Toshkent: Universitet, 2017. O'quv qo'llanma.
6. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M., Axborot texnologiyalari. Toshkent: Noshir, 2009

Foydalanilgan internet saytlari

7. www.ziynet.uz
8. www.pedagog.uz
9. uz.m.wikipedia.org.

SAID AHMAD VA OZOD SHARAFIDDINOV ESSELARIDA BADIY TASVIR VOSITALARINING ISHLATILISHI

Nasridinova Gulbahor O'ktam qizi

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi metodik xizmat

ko'rsatish bo'limi

ona tili va adabiyot fani metodisti